

UDK: 331.101.262

*Tojiyeva Muhayyo Valiyevna*

Buxoro davlat texnika universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

## MINTAQADA INSON SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari, uning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi va zamonaviy ilmiy yondashuvlari tizimli tahlil qilingan. O‘Inson salohiyati’, O‘inson kapitali’ va O‘mehnat resurslari’ tushunchalari qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning o‘zaro farqli va bog‘liq jihatlari aniqlangan. Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) metodologiyasi hamda mintaqaviy darajada inson salohiyatini baholash indikatorlari tadqiq etilgan. Shuningdek, mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar guruhlangan holda tasniflangan va zamonaviy yondashuvlar solishtirma tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida mintaqada inson salohiyatini samarali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson salohiyati, inson kapitali, mintaqaviy iqtisodiyot, inson taraqqiyoti indeksi, imkoniyatlar yondashuvi, ta’lim, mehnat resurslari, hayot sifati, barqaror rivojlanish.

**Аннотация:** в данной статье систематически проанализированы теоретико-концептуальные основы развития человеческого потенциала в регионе, его сущность, структура и современные научные подходы. Проведён сравнительный анализ понятий «человеческий потенциал», «человеческий капитал» и «трудовые ресурсы», выявлены их различия и взаимосвязи. Исследованы методология индекса человеческого развития (ИЧР) и индикаторы оценки человеческого потенциала на региональном уровне. Кроме того, сгруппированы и классифицированы факторы, влияющие на развитие человеческого потенциала в регионе, а также проведён сравнительный анализ современных подходов. На основе результатов исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации, направленные на эффективное развитие человеческого потенциала региона.

**Ключевые слова:** человеческий потенциал, человеческий капитал, региональная экономика, индекс человеческого развития, подход возможностей, образование, трудовые ресурсы, качество жизни, устойчивое развитие.

**Abstract:** this article systematically analyzes the theoretical and conceptual foundations of human potential development in the region, its essence, structure, and modern scientific approaches. A comparative analysis of the concepts of "human potential," "human capital," and "labor resources" is carried out, revealing their differences and interconnections. The methodology of the Human Development Index (HDI) and the indicators for assessing human potential at the regional level are examined. In addition, the factors influencing the development of human potential in the region are grouped and classified, and modern approaches are comparatively analyzed. Based on the research results, scientific conclusions and practical recommendations aimed at the effective development of the region's human potential have been developed.

**Keywords:** human potential, human capital, regional economy, human development index, capability approach, education, labor resources, quality of life, sustainable development.

### **Kirish**

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida davlat va mintaqalarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida inson salohiyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bilimlar iqtisodiyoti va raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida iqtisodiy o‘shishning yetakchi manbai tabiiy resurslar yoki jismoniy kapitaldan bilim, malaka, ijodkorlik va salomatlik kabi insonga xos sifatlar tomon siljib bormoqda. Jahon amaliyoti ko‘rsatmoqdaki, tabiiy resurslarga boy bo‘lmagan, biroq inson salohiyatini rivojlantirishga izchil sarmoya kiritgan

mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Finlyandiya) barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish so'ratlariga erishgan. Bu esa inson salohiyatini rivojlantirishni nafaqat ijtimoiy siyosat, balki iqtisodiy strategiyaning markaziy yo'nalishiga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham inson salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi'da inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifati va qamrovini oshirish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish hamda aholi bandligini ta'minlash markaziy vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda inson kapitalini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilishi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda inson omilining hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi.

Mintaqaviy darajada inson salohiyatini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, mamlakat miqyosidagi umumiy ko'rsatkichlar ortida hududlar o'rtasidagi sezilarli tafovutlar — ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasining notekis taqsimlanishi, mehnat bozoridagi nomutanosiblik, aholi daromadlari va turmush darajasidagi farqlar yashiringan bo'ladi. Shu bois har bir mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va tabiiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda inson salohiyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslarini chuqur o'rganish va zamonaviy yondashuvlarni tizimlashtirish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslarini, uning mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilishini ochib berish, baholash indikatorlarini tizimlashtirish hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Inson salohiyati va inson kapitali to'g'risidagi ilmiy qarashlar iqtisodiy fikr tarixida uzoq davrni qamrab oladi. Klassik iqtisodchi A.Smit o'zining O'Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot' (1776) asarida jamiyat a'zolari egallagan foydali qobiliyat va malakalarni asosiy kapitalning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan. Bu g'oya keyinchalik inson kapitali nazariyasining shakllanishiga zamin yaratdi.

Inson kapitali nazariyasining ilmiy asoschilaridan biri T.Shults (Theodore Schultz) o'zining O'Investment in Human Capital' (1961) tadqiqotida inson bilim va malakalariga qilinadigan sarf-xarajatlarni iste'mol emas, balki kelajakda daromad keltiruvchi investitsiya sifatida asoslab bergan. Olim iqtisodiy o'sishda inson salohiyatiga qilinadigan sarmoyaning jismoniy kapitalga qaraganda yuqoriroq samara berishini isbotladi. G.Bekker (Gary Becker) esa O'Human Capital' (1964) asarida ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va salomatlikka qilinadigan sarmoyalarni mikro va makro darajada tizimli tahlil qilib, inson kapitalini iqtisodiy tahlilning to'laqonli obyektiga aylantirdi.

Inson salohiyati tushunchasini iqtisodiy o'lchovlardan tashqariga chiqargan yondashuv A.Sen (Amartya Sen)ning imkoniyatlar yondashuvi (capability approach) hisoblanadi. Olim inson taraqqiyotini nafaqat daromad yoki iste'mol darajasi bilan, balki insonning o'zi qadrlaydigan hayot kechirish erkinligi va real imkoniyatlari orqali baholashni taklif etdi. Ushbu g'oya M.ul-Haq (Mahbub ul-Haq) rahbarligida BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) tomonidan 1990-yilda ishlab chiqilgan Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index)ning nazariy asosini tashkil etdi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham inson salohiyati, inson kapitali va mintaqaviy rivojlanish masalalarini keng tadqiq etganlar. Jumladan, A.X.Shadiyev mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilib, hududiy taraqqiyotda inson kapitali, endogen o'sish va institutsional omillarning ustuvorligini asoslaydi. Bir qator tadqiqotchilar mintaqaviy rivojlanishda inson kapitalini O'ta'lim va sog'liqni saqlash — asosiy investitsiya' tamoyili asosida ko'rib chiqishadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda mintaqada darajasida inson salohiyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslarini yaxlit tizim sifatida taqdim etuvchi hamda baholash indikatorlarini kompleks tarzda umumlashtiruvchi tadqiqotlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy o'rnini belgilaydi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanilgan. Xususan, mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslarini o‘rganishda tizimli va tarkibiy yondashuv, mantiqiy va tarixiy tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullari qo‘llanilgan. Tushunchalarni farqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda qiyosiy tahlil, zamonaviy yondashuvlarni baholashda esa selektiv tanlash va monografik tahlil usullaridan foydalanilgan. Nazariy xulosalarni asoslashda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot natijalari empirik asos sifatida xizmat qilgan.

**Tahlil va natijalar**

Inson salohiyatining mazmun-mohiyatini ochib berishda avvalo uni bir-biriga yaqin, biroq o‘zaro farq qiluvchi tushunchalardan ajratib olish zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda O‘inson salohiyati’, O‘inson kapitali’ va O‘mehnat resurslari’ tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi, biroq ular mazmunan turlicha kategoriyalardir. Fikrimizcha, inson salohiyati — bu shaxs, aholi guruhi yoki mintaqa aholisining mavjud hamda potensial jismoniy, intellektual, kasbiy-malakaviy, ma’naviy va ijodiy imkoniyatlari yig‘indisi bo‘lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi. Inson kapitali esa ushbu salohiyatning iqtisodiy faoliyatda real qo‘llanilayotgan va daromad keltirayotgan qismini ifodalaydi. Mehnat resurslari tushunchasi asosan mehnatga layoqatli aholining miqdoriy tavsifiga urg‘u beradi.

Ushbu tushunchalarning qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

*1-jadval*

**O‘Inson salohiyati’, O‘inson kapitali’ va O‘mehnat resurslari’ tushunchalarining qiyosiy tahlili**

Taqqoslash mezonlari	Mehnat resurslari	Inson kapitali	Inson salohiyati
<b>Mohiyati</b>	Mehnatga layoqatli aholining miqdoriy majmui	Faoliyatda qo‘llanilayotgan bilim va malakalar zaxirasi	Mavjud va potensial imkoniyatlarning yaxlit yig‘indisi
<b>Asosiy urg‘u</b>	Miqdor (son, yosh, jins tarkibi)	Iqtisodiy natija va daromad	Sifat va kelgusi rivojlanish imkoniyati
<b>O‘lchami</b>	Aholi statistikasi	Investitsiya va daromad ko‘rsatkichlari	Inson taraqqiyoti indeksi va sifat mezonlari
<b>Vaqt jihati</b>	Joriy holat	Real, foydalanilayotgan	Real va istiqbolli (potensial)

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, inson salohiyati eng keng qamrovli kategoriya bo‘lib, u mehnat resurslarining miqdoriy va inson kapitalining sifat-iqtisodiy tavsiflarini o‘zida qamrab oladi hamda ularni kelgusi rivojlanish imkoniyatlari bilan boyitadi. Shu ma’nodagi mintaqada inson salohiyatini rivojlantirish deganda nafaqat mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish, balki aholining bilim, salomatlik, malaka va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni real iqtisodiy natijaga aylantirish jarayoni tushuniladi.

Inson salohiyati murakkab, ko‘p qirrali tuzilishga ega. Uning tarkibiy elementlarini shartli ravishda demografik, sog‘lomlashtirish (jismoniy), ta’lim-intellektual, kasbiy-malakaviy, ma’naviy-madaniy va ijtimoiy-institutsional komponentlarga ajratish mumkin (1-rasm).

INSON SALOHIYATI		
<b>Demografik komponent (aholi soni, yosh-jins tarkibi, tabiiy o‘sish)</b>	<b>Jismoniy (sog‘lomlashtirish) komponent — salomatlik, umr ko‘rish davomiyligi</b>	<b>Ta’lim-intellektual komponent — bilim, savodxonlik, ta’lim qamrovi</b>

<b>Kasbiy-malakaviy komponent</b> — ko‘nikma, tajriba, raqamli malaka	<b>Ma‘naviy-madaniy komponent</b> — qadriyatlar, ijodkorlik, motivatsiya	<b>Ijtimoiy-institutsional komponent</b> — bandlik, ijtimoiy himoya, infratuzilma
--	--	---

### 1-rasm. Inson salohiyatining tarkibiy tuzilishi

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Keltirilgan komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir elementning zaifligi butun salohiyat samaradorligini pasaytiradi. Masalan, aholining yuqori ta‘lim darajasi mavjud bo‘lsa-da, mos ish o‘rinlari va institutsional sharoitlar yetishmasa, inson salohiyati real iqtisodiy natijaga aylanmaydi. Aksincha, salomatlik va ta‘lim komponentlariga qilinadigan izchil sarmoya uzoq muddatda kasbiy-malakaviy hamda ijodiy komponentlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois mintaqada inson salohiyatini rivojlantirish barcha komponentlarni muvozanatli va tizimli tarzda qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab etadi.

Inson salohiyatini baholashning eng keng tarqalgan xalqaro metodologiyasi Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) hisoblanadi. U uchta asosiy o‘lchamni — uzoq va sog‘lom umr ko‘rish, bilim olish hamda munosib turmush darajasini yagona kompozit ko‘rsatkichda birlashtiradi (2-jadval). ITI qiymati 0 dan 1 gacha bo‘lib, u qanchalik birga yaqin bo‘lsa, inson taraqqiyoti darajasi shunchalik yuqori hisoblanadi. UNDP metodologiyasiga ko‘ra, davlatlar ITI qiymati bo‘yicha juda yuqori, yuqori, o‘rta va past inson taraqqiyoti guruhlariga ajratiladi.

2-jadval

### Inson taraqqiyoti indeksining tarkibiy o‘lchamlari va indikatorlari

O‘lcham	Baholash indikatorlari	Ifodalanishi
<b>Sog‘lom va uzoq umr</b>	Tug‘ilishda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi	Aholi salomatligi va sog‘liqni saqlash tizimi sifati
<b>Bilimlilik</b>	Kattalar savodxonligi va ta‘lim olish yillari (kutilayotgan va o‘rtacha)	Ta‘lim qamrovi va inson kapitalining bilim komponenti
<b>Munosib turmush darajasi</b>	Aholi jon boshiga YAIM (xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha)	Iqtisodiy resurslarga ega bo‘lish va farovonlik darajasi

*Manba: BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) metodologiyasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

UNDP ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi yillarda inson taraqqiyoti bo‘yicha O‘yuqori inson taraqqiyoti’ guruhiga kirgan. Mamlakatda ta‘lim qamrovining kengayishi, aholi umr ko‘rish davomiyligining oshishi va aholi jon boshiga daromadning o‘shishi ITI qiymatining ijobiy dinamikasini ta‘minlamoqda. Biroq milliy darajadagi ijobiy ko‘rsatkichlar hududlar kesimida notekis taqsimlangan bo‘lib, ba‘zi mintaqalarda ta‘lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, mehnat bozori imkoniyatlari hamda aholi daromadlari nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa mintaqaviy darajada inson salohiyatini baholashning yaxlit indikatorlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, mintaqada inson salohiyatini kompleks baholashda ITIning uch klassik o‘lchami bilan bir qatorda quyidagi qo‘shimcha indikatorlar guruhini hisobga olish maqsadga muvofiq: bandlik va ishsizlik darajasi, kasbiy malaka va qayta tayyorlash qamrovi, raqamli ko‘nikmalar darajasi, ilmiy-innovatsion faollik, ijtimoiy himoya qamrovi hamda migratsiya balansi. Ushbu indikatorlar mintaqa aholisining nafaqat mavjud, balki potensial imkoniyatlarini ham aks ettiradi va boshqaruv qarorlari uchun aniqroq asos yaratadi.

Mintaqada inson salohiyatini rivojlantirish jarayoni bir qator ichki va tashqi omillar ta‘sirida kechadi. Ushbu omillarni shartli ravishda to‘rt guruhga — iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, institutsional-boshqaruv va texnologik-innovatsion omillarga ajratish mumkin (3-jadval).

3-jadval

### Mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar

Omillar guruhi	Omillarning tarkibi va ta'siri
<b>Iqtisodiy omillar</b>	Mintaqa iqtisodiy salohiyati, aholi daromadlari darajasi, investitsiyalar hajmi, ish o'rinalari yaratilishi, ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi.
<b>Ijtimoiy-demografik omillar</b>	Aholi soni va yosh tarkibi, tabiiy o'sish, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya darajasi, oilaviy qadriyatlar va aholining ta'limga munosabati.
<b>Institutsional-boshqaruv omillari</b>	Davlat siyosati va strategik dasturlar, mahalliy hokimiyat organlari faoliyati samaradorligi, ijtimoiy himoya tizimi, normativ-huquqiy baza va boshqaruv shaffofligi.
<b>Texnologik-innovatsion omillar</b>	Raqamli infratuzilma, ta'limni raqamlashtirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati, innovatsiyalarni joriy etish darajasi va raqamli malakalar rivoji.

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular yaxlit tizim sifatida ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy omillar inson salohiyatini rivojlantirish uchun moddiy asos yaratsa, ijtimoiy-demografik omillar uning miqdoriy va sifat tavsiflarini belgilaydi. Institutsional-boshqaruv omillari resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan tashkiliy muhitni shakllantiradi, texnologik-innovatsion omillar esa salohiyatni zamonaviy talablarga moslashtiradi. Shu bois mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosat mazkur omillarning barchasini qamrab oluvchi kompleks va muvozanatli xarakterga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy iqtisodiyot fanida mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishga oid bir necha yetakchi ilmiy yondashuv shakllangan. Ularning har biri inson salohiyatining ma'lum jihatiga urg'u beradi va o'ziga xos ustunlik hamda cheklovlariga ega (4-jadval).

4-jadval

**Mintaqada inson salohiyatini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar**

Yondashuv	Mohiyati	Cheklovi
<b>Inson kapitali nazariyasi</b>	Ta'lim, salomatlik va malakaga qilingan sarmoyani iqtisodiy o'sish manbai sifatida ko'radi	Insonning noiqtisodiy (ma'naviy, ijodiy) jihatlarini to'liq qamramaydi
<b>Imkoniyatlar yondashuvi</b>	Taraqqiyotni insonning erkinligi va real imkoniyatlarini kengaytirish orqali baholaydi	Miqdoriy o'lchash va amaliy tatbiq etish murakkab
<b>Endogen o'sish nazariyasi</b>	Bilim, innovatsiya va inson kapitalini ichki o'sish omili sifatida asoslaydi	Ijtimoiy va institutsional omillarni yetarlicha hisobga olmaydi
<b>Barqaror rivojlanish yondashuvi</b>	Inson salohiyatini ekologik va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtiradi	Amalga oshirish katta resurs va institutsional qo'llab-quvvatlashni talab etadi
<b>Institutsional yondashuv</b>	Boshqaruv sifati va institutlarni salohiyat rivojining hal qiluvchi omili deb biladi	Institutsional islohotlar uzoq muddatli va murakkab kechadi

Manba: ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, hech bir yondashuv yakka holda mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishning barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Inson kapitali nazariyasi va endogen o'sish nazariyasi salohiyatning iqtisodiy tomonini kuchli asoslasa, imkoniyatlar yondashuvi uning insonparvarlik va erkinlik jihatlariga urg'u beradi. Barqaror rivojlanish yondashuvi salohiyatni ekologik va avlodlararo adolat bilan bog'laydi, institutsional yondashuv esa samarali boshqaruv muhitining ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bois mintaqada darajasida

ushbu yondashuvlarni yaxlit, integratsiyalashgan konseptual asosda birlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishning konseptual modelini uch bosqichli tizim sifatida taqdim etish mumkin: birinchi bosqich — salohiyatni shakllantirish (demografik asos, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari); ikkinchi bosqich — salohiyatni rivojlantirish va sifatini oshirish (kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish, raqamli ko'nikmalar); uchinchi bosqich — salohiyatdan samarali foydalanish (bandlik, ijodiy va innovatsion faoliyat, munosib mehnat sharoiti). Ushbu bosqichlarning uzluksiz va muvozanatli amal qilishi mintaqada inson salohiyatining real iqtisodiy va ijtimoiy natijaga aylanishini ta'minlaydi.

### **Xulosa va takliflar**

Mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari va zamonaviy yondashuvlarini tizimli o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, inson salohiyati O'mehnat resurslari' va O'inson kapitali' tushunchalariga nisbatan eng keng qamrovli kategoriya bo'lib, u aholining mavjud hamda potensial jismoniy, intellektual, kasbiy, ma'naviy va ijodiy imkoniyatlarini yaxlit ifodalaydi. Shu bois mintaqada inson salohiyatini rivojlantirish mehnat resurslaridan foydalanish bilangina chegaralanmasdan, aholi imkoniyatlarini kengaytirish va ularni real natijaga aylantirish jarayonini qamrab olishi lozim.

Ikkinchidan, inson salohiyati ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, uning demografik, jismoniy, ta'lim-intellektual, kasbiy-malakaviy, ma'naviy-madaniy va ijtimoiy-institutsional elementlari o'zaro uzviy bog'liqdir. Bir komponentga bir tomonlama e'tibor qaratish samarali natija bermaydi; salohiyatni rivojlantirish barcha elementlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Uchinchidan, mintaqaviy darajada inson salohiyatini baholashda Inson taraqqiyoti indeksining uch klassik o'lchamini bandlik, raqamli malaka, innovatsion faollik va ijtimoiy himoya kabi qo'shimcha indikatorlar bilan boyitish maqsadga muvofiq. Bu esa hududlar kesimidagi tafovutlarni aniqroq baholash va boshqaruv qarorlarining asoslilikini oshirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, mavjud zamonaviy yondashuvlarning hech biri yakka holda inson salohiyatini rivojlantirishning barcha jihatlarini qamrab ololmaydi. Shu sababli inson kapitali nazariyasi, imkoniyatlar yondashuvi, endogen o'sish, barqaror rivojlanish va institutsional yondashuvlarni yaxlit konseptual asosda integratsiyalashtirish zarur.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, mintaqada inson salohiyatini rivojlantirishni takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: mintaqada inson salohiyatini kompleks baholovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish va uni boshqaruv amaliyotiga joriy etish; ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish; aholining raqamli va kasbiy malakalarini oshiruvchi uzluksiz ta'lim tizimini kengaytirish; mahalliy mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash tizimini moslashtirish; hamda inson salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlovchi munosib ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish. Ushbu chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish mintaqada inson salohiyatining barqaror rivojlanishini va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi hal qiluvchi rolini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son O'2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida'gi Farmoni. // <https://lex.uz>.
2. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.
3. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: Columbia University Press, 1964. – 187 p.
4. Sen A. Development as Freedom. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.

5. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London, 1776.
6. UNDP. Human Development Report 2023/2024. – New York: United Nations Development Programme, 2024. // <https://hdr.undp.org>.
7. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.
8. Shadiyev A.X. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish zamonaviy yondashuvlarining ilmiy-nazariy tahlili // O‘Iqtisodiyot va turizm’ xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. – 2025. – №3(23). – B. 53–62.
9. Yavmutov D.Sh. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish – hududiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida // Economy and Innovation. – 2024. – Vol. 52.
10. Oleynikova O.N., Muravyeva A.A. Professionalniye standarty: razrabotka, primeneniye, perspektivy. – M.: ANO SPP, 2015. – 168 s.
11. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. // <https://stat.uz>.